

**TA’LIM MUASSASALARIDA BUXGALTRERIYA HISOBI VA
ICHKI AUDIT**

Shaymatova Nargiza Ashurovna

Termiz davlat universiteti

“Moliya” kafedra o’qituvchisi

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O’TISH**

BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda — MHXS) o’tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minalash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

...

9. Belgilansinki, 2020 — 2025-yillar davomida akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlarida MHXS (buxgaltyerlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot”, “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR ACCA)” kurslari va boshqalar) bo‘yicha o‘qitish, malakasini oshirish, interfaol usullarni qo‘llagan holda o‘qitish, shuningdek, buxgaltyerlarni xalqaro sertifikatlash doirasida O‘zbekiston Respublikasida dastlabki ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon topshirish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining respublika budgeti va qonun hujjalari taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi va quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) oliy ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari (“Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha), talabalari va bitiruvchilari (o‘qishni tugatgandan so‘ng olti oy ichida) hamda davlat organlarining xodimlarini o‘qitish xarajatlari o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlari birgalikda belgilangan o‘qitishning yagona qiymati bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tgan o‘quv markazlariga qoplab beriladi;

b) oliy ta’lim muassasalarining “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha pedagog kadrlari, talabalari va bitiruvchilari (o‘qishni tugatgandan so‘ng olti oy ichida) hamda davlat organlari xodimlarining har biriga alohida quyidagi xarajatlar qoplab beriladi:

dastlabki ro‘yxatdan o‘tish xarajatlari — to‘liq hajmda;

imtihon topshirish uchun birinchi marta ro‘yxatdan o‘tish xarajatlari — ro‘yxatdan o‘tish summasining 50 foizi miqdorida imtihon topshirunga qadar,

ro‘yxatdan o‘tish summasining qolgan 50 foizi — imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda;

imtihon topshirish uchun ikkinchi marta ro‘yxatdan o‘tish xarajatlari — ro‘yxatdan o‘tish summasining 50 foizi miqdorida imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o‘quv markazlariga o‘qitish xarajatlarini, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari bo‘yicha pedagog kadrlari, talabalari va bitiruvchilariga (o‘qishni tugatgandan so‘ng olti oy ichida) hamda davlat organlarining xodimlariga dastlabki ro‘yxatdan o‘tish va imtihon topshirish uchun ro‘yxatdan o‘tish xarajatlarini qoplash bo‘yicha avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotni ishlab chiqsin.

(9-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.10.2020-y., 06/20/6098/1432-som)

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida korxonalar faoliyati to‘g‘risida ishonchli axborotlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Korxonalar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ularning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarida aks yettililadi. Ushbu hisobotlardan foydalanish ta’sischilar, aksiyadorlar, soliq organlari, banklar, etkazib beruvchilar hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga korxonaning joriy moliyaviy holatini, uning faoliyati samaradorligini va rivojlanish istiqbollarini baholash imkonini beradi. Shunday ekan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlar ishonchli, xolis va amaldagi qonunchilikka mos bo‘lishi zarur. Audit bunday ma’lumotni olishga yordam beradi. Audit mustaqil moliyaviy nazorat bo‘lib, uning maqsadi tadbirkorlik subyektlarining buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining ishonchlilagini va moliyaviy (xo‘jalik) muomalalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlashdan iborat. Audit nafaqat kompaniyaning moliyaviy hisobotlarining ishonchlilagini tekshirishni, balki balanslarni, auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy hisobotlarni tekshirishni va xo‘jalik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, barcha foydalanuvchilar guruhlari ichki nazorat va buxgalteriya xizmatlari tomonidan yaratilgan ma’lumotlarga teng kirish imkoniyatiga ega emaslar. Odatda, ma’muriyat axborotdan cheksiz foydalanish va unga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ichki nazorat iyerarxiyaning turli darajalarida, uning to‘liqligi, shakli va mazmuni bo‘yicha turli talablar bilan boshqaruv maqsadlari uchun zarur axborotni taqdim etish imkoniyatini amalga oshirish uchun tashkil etilishi kerak. Xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqaruv tizimidagi ichki nazorat faqat boshqa boshqaruv funksiyalari bilan birgalikda samarali faoliyat

ko‘rsatishi mumkin. Nazorat, buxgalteriya va analitik jarayonlarning aloqasi boshqaruvning axborot ta’minoti muammosini eng yaxshi hal qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiytlar:

1. Кудбиев, Д. (2021). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст.
2. Akbaralievich, P. E. A. (2021). Theoretical Bases Of The Organization Of Private Capital Accounting In The Republic Of Uzbekistan. EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal.
3. Якубов, В. Г. (2021). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(7).
4. Kumrikhon, K., & Azizhon, K. (2021). Issues of Improving the Audit of Insurance Organizations. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11).
5. Исманов, И. Н., & Савинова, Г. А. (2021). Сопоставление Некоторых Аспектов Национальных Стандартов Бухгалтерского Учета и МСФО. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11).
6. Kadirov, A. M. (2018). The role of labor resources in ensuring the economic sustainability of oil and gas industry companies in Uzbekistan. Экономика и предпринимательство, (11).
7. Kadirov, A. (2018). INTERNAL FACTORS AFFECTING THE ECONOMIC SUSTAINABILITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. SCIENTIFIC RESEARCHES FOR DEVELOPMENT FUTURE.
8. Кадиров, А. М. (2021). МОДЕЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ КОНТРОЛЛИНГА.
9. Кадиров, А. (2021). САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА КОНТРОЛЛИНГ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ. Иқтисодиёт ва таълим, (3)
10. Juraboevich, B. N. (2021). Products in Manufacturing Enterprises the Essence of Quality Management. International Journal of Development and Public Policy.